

QORAQALPOQ SOZ ASBOBLARI KELIB CHIQISHI

Orinbaeva Ulzada

*Ózbekstan Mámleketik Konservatoriyası Nókis filiali
“Uliwma kasiplik hám social-gumanitar pánler” kafedrası
“Muzikatanıw” qániygeligi 2-kurs studentı
Ilimiy basshi: G.M.Kamalova*

Annotatsiya: Bu maqolada qoraqalpoq soz asboblarining kelib shiqishi haqqida toliq malumotlar berilgan va soz asboblari tarixi ham aks ettirilgan.

Kalit soʻzlar: «Qobiz», «Gijjak», «Dutor», «Shanqovuz», «Balaman», «Ushpelek», «Qamis sirnay», «Gartiq», «Quwray», «Tuyaq».

Аннотация: В данной статье представлена подробная информация о происхождении каракалпакских музыкальных инструментов, а также отражена история музыкальных инструментов.

Ключевые слова: «Гобиз», «Гиджак», «Дутор», «Шанговуз», «Баламан», «Ушпелек», «Камис сирнай», «Гартик», «Курай», «Туюк».

Abstract: This article provides detailed information about the origin of Karakalpak musical instruments, and also reflects the history of musical instruments.

Key words: “Gobiz”, “Gidzhak”, “Dutor”, “Shangovuz”, “Balaman”, “Ushpelek”, “Kamis sirnai”, “Gartik”, “Kurray”, “Tuyak”.

Qoraqalpoq xalqi eski xalqlardan biri boʻlib Oʻrta osiyodagi boshqa xalqlar singari oʻzining boy tarixiga, oʻz zomoniga mos yuqori madaniyatiga ega boʻlgan xalqlardan biri. Qoraqalpoq xalqi oʻz turmush tirikchiligining koʻrinishi sifatida har hil janrlarda boy merosiga urf odatiga, milliy kuy va qoʻshiqlariga, dostonlariga har xil ogʻizaki ijod namunalariga va oʻzining soz asboblariga boy xalq ekanligini koʻramiz. Qoraqalpoq musiqa madaniyatining yuqori darajada rivojlanib buyuk choqqilarni egallashida milliy soz asboblarimizning oʻrni juda katta va beqiyos.

Ajdodlarimizdan bizgacha «Qobiz», «Gijjak», «Dutor», «Shanqovuz», «Balaman», «Soz surnay», «Ushpelek», «Qamis sirnay», «Gartiq», «Quwray», «Tuyaq», «Qabaq», asboblari yetib kelgan.

Qobiz – asbobi Qoraqalpoq xalqi orasida qahramonlik dostonlarining ijrochilari boʻlgan tarixni bizgacha yetkazishda katta hissa qoʻshgan jirovlar tarafidan foydalanilgan. Jirov qoʻliga Qobizni olib xalqning boy xazinasini boʻlgan dostonlarni tarixiy toʻlgovlarni yigʻilgan xalqqa tomosha beruvchi xush ovozli ijrochi va sozanda boʻlib hisoblanadi.

Gijjak – Qoraqalpoq musiqa ijrochiligida moslashtirilgan torli asboblardan biri bu gijjak soz asbobi boʻlib hisoblanadi. Gijjak qoraqalpoq xalqi bilan bir qatorda

Ozbek, azarbayjon, tojik, uygur va boshqada xalqlarda juda keng taralgan. Gijjak torli – tarqichli asbob boli, b, qoraqalpoqlar orasida baxshilarga qoʻshilib «janapayshi» deb ham qoʻllanilgan. Gijjak asbobida dutor asbobi singari tut yogʻochidan yasaladi. Uning ovozi xromatikaliq qurilishda boʻlib kvarta intervaliga sozlanadi.

Dutor – asbobi qoraqalpoq xalqi orasida keng taralgan milliy merosimizg aylanib asirlar davomida har qanday vaqitta quvonchli va qaygʻuli, toy bazimlarida birga umur surib kelayotgan milliy boyligimiz hisoblanadi. Xalqimiz orasida Dutor chaluvchilarni «sozanda» deb chalib qoʻshiq aytuvchilarni «baxshi» deb ataymiz. Dutor barmoq bilan chalinadigan musiqa asbobi.

Chanqovuz – Qoraqalpoqlarda asosan ayol-qizlar tarafidan ijro etiladigan, bormoq yordamida shuningdek uflash orqali chalinadigan, takrorlanmas tovishga ega milliy asboblarimizning biri. Chanqovuz asbobida chalinadigan «Sinsiw», «Jetim qiz», «Qara jorga», «Atshok», «Eskek esiw», «Ala jorga», «Gaz ganqildisi» kabi kuylar soʻzsiz chalinadi.

Balaman – Musiqa madaniyatimizda uflab chalinadigan qoʻsh tilliy soz asboblarimiz qatoridan joy olgan balaman asbobi. U yogʻochdan yasilib, korpusning orasida 5 mm oralari bir qalibda joylashgan teshikchalari boʻlib ularning soni sakkizga boradi. Bu asbob oʻzbek, tojik, azarbayjon, qoraqalpoqlarda uchrashadi. Bu asbobni baxshilarga qoʻshilib chaladigan boʻlgan.

Ushpelek – Qoraqalpoq xalqining uflab chertiladigan asboblarining qatoriga kirib uning pichimi kichkina dumoloq shakilga ega, kuzaga uhshash boʻlib keladi. Bu asbob boshqa xalqlarda Qush formasida boʻlib 1-3 teshigi bor. Asbobning ovozi yingichga boʻlib nay asbobi kabi ovozi yoqimli eshitiladi. Bu asbobda 1-2 soz bor boʻlib qoraqalpoq xalqida chapon va jilqimanlar chalib kelgan. Shu asbobning bir nechta turi bor. 3-5 teshikchali yetib yasalsa va unga suv quyib chalinsa juda yoqimli bulbulning ovoziga uhshash ovoz beradi.

Gartiq – Loydan ishlanib pechlarda pishiriladi va qamis tutukcha yordamida chertiladi 6 teshikli. Gartiq deb nomlanishi «gar» degani katta boshliq (ungir) degan manoni bildiradi. Asbobning ovozi shu ungirdan chiqqan ovozga uhshash boʻlganligi sababli Gartiq deb atagan.

Bugungi kunda qoraqalpoq milliy soz asboblarining koʻpchiligi saqlanib elimiz orasida milliy boyligimiz va beboha gaziynamiz sifatida yuqori darajada ardoqlanib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qalli Ayimbetov. «Xalq danaligʻi» 1988-y Qoraqalpoqiston bosmasi.
2. Charshemov J. Problems of Using Karakalpak Folklore in Composers //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 270-273.

3. Charshemov J. A REVIEW OF MARKABAY JIEMURATOV'S WORK //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 818-821.
4. Niyazbaeva A., Kamalova G. ÓZBEKISTON XALQ BAXSHISI QALLIEV TENELBAY GENJEBAEVICH IJODI //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 22-24.
5. Dauletbaeva G., Kamalova G. A SHINING STAR //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 880-884.
6. Segizbaeva G., Kamalova G. M. DEVELOPMENT OF THE ORCHESTRA OF MUSICAL INSTRUMENTS IN KARAKALPAKSTAN //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 875-879.
7. Niyazbaeva A. J., Kamalova G. M. CHANQOVUZ MUSIQA ASBOBI VA UNING TURLARI //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 26-30.
8. Kamalova G. M. et al. QARAQALPAQTIN' BAY MIYRASI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 32. – №. 2. – С. 52-54.
9. Aysawle J., Kamalova G. M. SAHRA BÚLBÚLI ROZA QUTEKEEVA //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 32. – №. 2. – С. 60-66.
10. Begis P., Kamalova G. M. SÓNBES JULDIZ //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 32. – №. 2. – С. 55-59.